ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каюмов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ.....	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	
YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	



ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIVAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI.....	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH.....	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILİYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQUARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otaleb o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDA FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI.....	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDIY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI.....	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITSION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0.....	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Difuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	



ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Hakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	
CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH.....	1443
Otaniyozov Orifjon Otaxonovich	
BANK KAPITALI YETARLILIGI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	1449
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
SIRKULYAR IQTISODIYOTDA RESURS TANQISLIGINING OLDINI OLIISH MASALALARI	1454
Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi	
THE IMPACT OF DIGITAL PAYMENT SYSTEMS DEVELOPMENT ON THE BANKING SECTOR: A COMPARATIVE ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES	1459
Aziza Farmonovna Ergasheva, Rustam Olimjonovich Oltinov	
ICHKI AUDIT VA UNING KORXONA NAZORAT TIZIMIDAGI O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1472
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RISK TURLARI VA KELIB CHIQISH OMILLARI	1477
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
O'ZBEKISTONDA TURISTLARGA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1483
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING SAMARALI YO'LLARI.....	1487
Adilov Mirkomil Miralimovich	
BUDJET JARAYONIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINING AMALDAGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	1494
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
KICHIK TADBIRKORLIK LOYIHALARINI MOLIVALASHTIRISHDA BANK KREDITLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	1499
Norqobilova Nargiza Abdiqodirovna	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ISHTIROKI VA ULARDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH	1504
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
МАКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВЫХ ПОСТУПЛЕНИЙ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ.....	1509
Муталова Дилором Махамаджановна, Хакимова Ситора Ильёсжон кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA MEXANIZMLARI.....	1515
Suyunov Asror Baxtiyorovich	



INNOVATSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISHDA DAVLATNING O'RNI.....	1518
Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING MOHIYATI VA UNING TADBIRKORLIK MUHITIDAGI O'RNI.....	1521
Xurramov Azizbek Muxiddin o'g'li	
DETERMINATION OF SEED DAMAGE IN THE PNEUMATIC TRANSPORT SYSTEM BY CONDUCTING EXPERIMENTS	1527
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
GEOTAHLLILIY YONDASHUV ASOSIDA DEHQON XO'JALIKLARINING YER BILAN TA'MINLANGANLIGINI BAHOLASH.....	1531
Axmatov Abutulibxon Ochilxon o'g'li	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING G'AZNA IJROSIDA BIG DATA TAHLILIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI.....	1535
Atajanov Murodbek Bekberganovich	
РОЛЬ И РАЗВИТИЕ КИБЕРПРАВА В ФИНТЕХ-ПРОЕКТАХ: ПРАВОВЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРИОРИТЕТЫ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	1539
Мирзаев Шерзод Махматкулович	
KAMBAG'ALLIK VA UNI TADRIJIY-NAZARIY KONSEPSIYALARI.....	1547
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
DAVLAT KORXONALARINI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA QIYMATNI ANIQLASH VA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	1554
Asomidinova Moxigulbonu Oybek qizi	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA HUDUDLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA MOLIVAYLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1560
Dovutov Faxriddin Javliyevich	
KICHIK KVADRATLAR METODIGA ALTERNATIV YANGI DIFFERENSIAL USULINI ISHLAB CHIQISH VA UNING SAMARADORLIGI	1567
Ochilov Sherali Baratovich, Akramova Obida Qosimovna, Raximova Dilnoza Davronovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MUHITGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1581
Ibragimova Ma'mura Muxiddinovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA «YASHIL LOYIHALAR»NI INVESTITSIYALASH IMKONIYATLARI.....	1585
Nilufar Mengqobilovna Xudayberdieva	
FINANCIAL CONDITION OF THE ENTERPRISE AS OBJECT OF RESEARCH AND EVALUATION	1589
Ismailova Makhbuba Mirkhalilovna	
MAGNEZIAL BOG'LOVCHI VA BAZALT TOLASI CHIQINDISI ASOSIDA KOMPOZITSION MATERIALLAR OLISH	1594
Rahimjon Jalilov Ravshanbek o'g'li, Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna	
YASHIL INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARI: LCOE, CBA VA SDGS INDIKATORLARI ASOSIDA TAHLIL	1598
Kilicheva Kamola Muzaffarovna	
RESPUBLIKADA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MASALALARI	1603
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
NAMANGAN VILOYATI OZIQ-OVQAT BOZORINING INSTITUTSIONAL SHAKLLANISHI VA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARI BARQAROR O'SISH SUR'ATLARINI BAHOLASH	1611
Ismoilov Alisher Jobir o'g'li, Mirtoyev Axrorbek Abdulpattoyevich	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA-INNOVATSION JARAYONLARNI TARTIBGA SOLISH USULLARI.....	1618
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
O'ZBEKISTONDA MAKRO IQTISODIY KO'RSATKICHLARNI BARQARORLASHTIRISH YO'LLARI.....	1624
Ulashev Xubbim Askarovich	
GERMANIYADA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH MAQSADLARI	1629
Risqulov Ravshan Bekto'raevich, Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafvna	
O'ZBEKISTONNING DAVLAT SEKTORIDA IPSAS STANDARTLARINI JORIY ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1633
Matrasul Yoqubov Mavlonberdiyevich, Qodirova Gulnoza Shavkatjon qizi	



MAMLAKATNING HUDUDIY IQTISODIY SIYOSATIDA BARQAROR HUDUDIY RIVOJLANISHNING MAZMUNI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1637
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
YOSHLAR TURIZMI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR, RAQAMLI AVLOD EHTIYOJLARI VA INNOVATSION TAKLIFLAR MODELI	1644
Hamzayeva Dilfuza Samarovna	
HUDUDLAR TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINING RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH INDEKSLARI ASOSIDA TOIFALARGA AJRATISH.....	1650
Matkarimov Komoliddin Jurabayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1655
Dilnozaxon Muxitdinova	
MAMLAKAT BREND-MARKETINGI SAYOHATNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA (BAA: DUBAY SHAHAR MISOLIDA)	1661
Ibodova Dilsora Ibodovna	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ВОЙНЫ И ИХ СПЕЦИФИКА В СПОРТЕ	1666
Набиуллин Р., Юсупов И., Ахмедова Ш.	
VIRTUAL LABORATORIYALAR ORQALI IQTISODIYOT YO'NALISHIDA PROFESSIONAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH.....	1674
Buranova Jazira Ergash qizi	
DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISHNING AQSH TAJRIBASI	1680
Rizoqulova Elnora Otabek qizi	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SHARTLAR ASOSIDA KREDIT OLISH IMKONIYATLARI	1684
Azimov Obidjon To'ymuratovich	
TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUV DARAJASI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1689
S.S. Togayev, S.T. Xolboyev	



TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUV DARAJASI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

S.S. Togayev

TDIU, Bank hisobi va auditi kafedrası dotsenti, PhD

S.T. Xolboyev

TDIU Samarqand filiali magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklari kapitallashuv darajasi, uning moliyaviy barqarorlikka ta'siri va 2020-2025-yillarda O'zbekiston bank tizimida amalga oshirilgan islohotlar ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda Basel III talablari, Markaziy bankning kapital yetarliligi ko'rsatkichlari bo'yicha yangi normativlari, shuningdek, bank kapitalining sifat tarkibi, risklarni hisoblash metodikasi va barqaror kapital tuzilmasini shakllantirish mexanizmlari yoritilgan. Amaliy qismda O'zbekistondagi yirik banklar (Ipoteka-bank, Asaka bank, Aloqabank, Turonbank) misolida kapitallashuvning joriy holati va moliyaviy barqarorlik modelini takomillashtirish yo'nalishlari ko'rsatib beriladi. Yakunda kapitallashuvni oshirishning institutsional, prudensial va makroiqtisodiy yechimlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bank kapitallashuvi, moliyaviy barqarorlik, Basel III, kapital yetarliligi, barqarorlik koeffitsienti, likvidlik.

Abstract. This article presents a scientific analysis of the capitalization level of commercial banks, its impact on financial stability, and the reforms carried out in Uzbekistan's banking sector during 2020-2025. The study highlights the requirements of Basel III, the new Central Bank regulations on capital adequacy indicators, the qualitative structure of bank capital, risk-calculation methodologies, and mechanisms for forming a stable capital structure. The empirical section examines the current capitalization level of major banks in Uzbekistan (Ipoteka Bank, Asaka Bank, Aloqabank, Turonbank) and outlines directions for improving the financial stability model. Finally, institutional, prudential, and macroeconomic solutions to enhance capitalization are proposed.

Key words: bank capitalization, financial stability, Basel III, capital adequacy, stability ratio, liquidity.

Аннотация. В данной статье проведён научный анализ уровня капитализации коммерческих банков, его влияния на финансовую устойчивость и реформ, осуществлённых в банковской системе Узбекистана в 2020-2025 годах. В исследовании раскрыты требования Basel III, новые нормативы Центрального банка по показателям достаточности капитала, а также качественная структура банковского капитала, методика расчёта рисков и механизмы формирования устойчивой структуры капитала. В практической части представлены текущие показатели капитализации крупнейших банков Узбекистана (Ипотека-банк, Асака банк, Алокабанк, Туронбанк) и направления совершенствования модели финансовой устойчивости. В заключение разработаны институциональные, пруденциальные и макроэкономические решения по повышению уровня капитализации.

Ключевые слова: капитализация банков, финансовая устойчивость, Basel III, достаточность капитала, коэффициент устойчивости, ликвидность.

KIRISH

Bank kapitallashuvi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va faoliyat xavfsizligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Kapitalning yetarli darajada bo'lishi bankning risklarni yengib o'tish qobiliyatini oshiradi, aktivlar sifati pasaygan hollarda yo'qotishlarni qoplash imkonini yaratadi, likvidlik bosimini kamaytiradi va barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi.

2020-2025-yillar davomida O'zbekiston bank tizimida amalga oshirilgan islohotlar, xususan, tijorat banklarini transformatsiya qilish, davlat ulushini qisqartirish, risklarni boshqarish tizimlarini raqamlashtirish, Basel III



talablari bo'yicha kapital yetarliligi normativlariga o'tish jarayonlari kapitallashuv masalasining dolzarbligini yanada kuchaytirdi.

2025-yil 28-oktabrda qabul qilingan 3697-sonli yangi Nizomga muvofiq, banklar kapitalining minimal me'yori va risk og'irlashtirilgan aktivlarga nisbati bo'yicha talablarda sezilarli o'zgarishlar kiritildi. Ushbu normativlar banklarni yanada barqaror kapital tuzilmasini shakllantirishga undamoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi tijorat banklarining kapitallashuv darajasi va moliyaviy barqarorligini oshirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini o'rganish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining kapitallashuv darajasi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalasi zamonaviy moliya tizimining eng muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Adabiyotlarda bank kapitali moliyaviy vositachi sifatida faoliyat yurituvchi banklarning risklarni yengib o'tish qobiliyatini oshiruvchi, iqtisodiy tebranishlarga barqaror turishini ta'minlovchi, to'lovga qobiliyatlikni kafolatlovchi asosiy omil sifatida talqin etiladi. G'arb olimlari F. Mishkin, J. Sinkey, P. Rose va boshqalar bank kapitalini "moliyaviy xavfsizlik yostig'i" deb baholagan bo'lib, kapital yetarliligi ko'rsatkichi bilan bank barqarorligi o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni asoslab bergan. Xalqaro miqyosda Basel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan Basel III standartlari kapitalning nafaqat miqdoriy, balki sifat ko'rsatkichini ham baholashni talab qiladi. Ushbu hujjatda kapital CET1, AT1 va Tier 2 kabi toifalarga ajratilib, kapitalning sifati, likvidlikni qo'llab-quvvatlovchi funksiyasi va iqtisodiy shoklarga chidamlilik darajasi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF), Jahon banki, Moody's va Fitch kabi global moliya institutlarining hisobotlarida yuqori kapitallashuvga ega banklar kredit risklarini boshqarishda ustunlikka ega ekani, aktivlar sifati pasayganda ham to'lovga qobiliyatli bo'lib qolishi, likvidlik bosimi kamayishi va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari ortishi qayd etiladi. Berger (1995), Demirgüç-Kunt & Detragiache (1998), Laeven & Levine (2009) singari tadqiqotchilarning empirik ishlari kapitalning o'sishi banklarning defolt xavfini sezilarli kamaytirishini, kredit portfellari sifati yaxshilanishini tasdiqlagan. Shuningdek, Basel III standartlarida kapital yetarliligi risk og'irlashtirilgan aktivlar bilan taqqoslagan holda baholanishi, kapital buferlarining joriy etilishi ham bank sektorining moliyaviy mustahkamligini oshiruvchi muhim omil sifatida ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimiga oid adabiyotlar sharhida 2020-2025-yillarda amalga oshirilgan islohotlar, davlat banklarining transformatsiya jarayonlari, xususiylashtirish, kapital bozorini rivojlantirish va risklarni boshqarish tizimlarining raqamlashtirilishi kapitallashuv jarayonlarining jadallashishiga sabab bo'lgani ta'kidlanadi. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun, PF-5992-son Farmon, shuningdek, 2025-yil 28-oktabrda qabul qilingan 3697-sonli Nizom kapitallashuv talablari va prudensial me'yorlarning yangilangan versiyasini belgilab berdi. Markaziy bank statistik ma'lumotlari, Ipoteka-bank, Asaka bank, Aloqabank va Turonbankning yillik hisobotlari kapitalning o'sishi, CET1 ulushining qisqarishi, AT1 va Tier 2 instrumentlarining keng qo'llanilishi bank kapitali sifatining yaxshilanganini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot tizimli tahlil, empirik tahlil, qiyosiy tahlil, bibliometrik tahlil hamda ekonometrik modellash usullariga asoslangan. Tahlil uchun quyidagi manbalardan foydalanildi:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ochiq statistik ma'lumotlari (2020-2025-yillar).
- Yirik banklarning moliyaviy hisobotlari (Asaka bank, Ipoteka bank, Aloqabank, Turonbank).

TAHLIL VA NATIJALAR

2020-2025-yillar bank tizimi uchun transformatsiya va islohotlar davri bo'ldi. Ushbu yillarda davlat banklarining xususiy sektor ulushiga sotilishi, kapital bozorini rivojlantirish, Basel III talablari bo'yicha prudensial me'yorlarning joriy etilishi hamda raqamli texnologiyalar asosidagi risklarni boshqarish tizimlarining kengayishi kapitallashuv darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Markaziy bankning statistik ma'lumotlariga ko'ra, banklar umumiy kapitali 2020-yilda 51 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 110-115 trillion so'm atrofida qayd etilgan. Bu esa 5 yil ichida kapitalning deyarli ikki barobar oshganini ko'rsatadi. Kapitalning ushbu o'sishi, avvalo, quyidagi mezonlar bilan izohlanadi:

- davlat banklari transformatsiyasi va qo'shimcha kapital qo'yilmalari;
- IPO/SPO jarayonlari (Ipoteka bank, Uzsanoatqurilishbank kabi);
- banklarning ustav kapitalini oshirish bo'yicha Markaziy bank talablarining kuchaytirilishi;
- risk og'irlashtirilgan aktivlar bilan solishtirilganda kapital bazasining mustahkamlanishi.



1-jadval. Yillik kapital o'sishi va CAR (Capital Adequacy Ratio)

Yil	Kapital umumiy hajmi (trln so'm)	CAR o'rtacha (%)	Kapital o'sishi (%)	Izoh
2020	51	13,8	+8	Pandemiya ta'siri, kreditlar kechikishi
2021	62	14,6	+12	Raqamli risk-modellar joriy etilishi
2022	74	16,3	+18	Transformatsiya 2-bosqichi
2023	85	17,1	+21	IPO jarayonlari boshlangan
2024	98	18,4	+25	Xalqaro reytinglar takomillashuvi
2025	110–115	19–20	+27	3697-son Nizom talablari kuchga kirgan

CAR ko'rsatkichi Basel III minimal talabi (10,5%)dan ancha yuqorida shakllanmoqda. 2020-2025-yillar ichida CAR 13,8% dan 19-20% gacha oshgan bo'lib, bu banklarning risklarni qoplash qobiliyati sezilarli darajada kuchayganini bildiradi.

Kapitallashuvning faqat miqdoran o'sishi emas, balki kapital tarkibining sifati ham barqarorlik uchun muhim ahamiyatga ega. Basel IIIga ko'ra, kapital 3 toifaga bo'linadi:

1. CET1 – Common Equity Tier 1-eng asosiy kapital (aksiyalar, taqsimlanmagan foyda).
2. AT1 – Qo'shimcha asosiy kapital (subordinatsiyalashgan instrumentlar).
3. Tier 2 – Ikkinchi darajali kapital (uzoq muddatli qarzlar, rezervlar).

2-jadval. 2020-2025-yillarda kapital strukturasi o'zgarishi

Yil	CET1 ulushi	AT1 ulushi	Tier 2 ulushi	Tahlil
2020	89%	4%	7%	Kapital sifati yuqori, ammo diversifikatsiya past
2021	87%	5%	8%	AT1 obligatsiyalar joriy etila boshladi
2022	85%	7%	8%	Tier 2 bo'yicha emissiyalar oshdi
2023	83%	9%	8%	Davlat banklarida subordinatsiyalashgan qarzlar paydo bo'ldi
2024	81%	10%	9%	Xalqaro investorlardan qarz jalb qilish kuchaydi
2025	78–80%	11–12%	9–10%	Basel III ga mos diversifikatsiya

CET1 ulushining 89%dan 78-80% gacha kamayishi salbiy holat emas, chunki bu AT1 va Tier 2 ulushining oshishi bilan izohlanadi.

- AT1 kapitali 2020-yildagi 4%dan 2025-yilda 11-12% gacha oshishi kapitalning barqarorligini kuchaytirdi.
- Tier 2 ulushi 9-10% darajasida shakllandi, bu esa banklarning uzoq muddatli moliyaviy xavfsizligini oshirdi.

Basel III standartlariga ko'ra, kapitalning yetarliligi risk og'irlashtirilgan aktivlarga nisbatan baholanadi. 2020-2025-yillarda RWA sezilarli darajada oshgan:

- 2020-yilda RWA – 265 trln so'm
- 2025-yilda RWA – 520-540 trln so'm

Bu 100% dan ortiq o'sish kreditlash hajmi, ipoteka portfeli va korporativ kreditlar kengayganini ko'rsatadi. Yirik banklar misolida kapitallashuvning amaliy tahlilidan quyidagilarni ko'rishimiz mumkin:

1) Ipoteka-bank:

- 2020-2025-yillarda ipoteka kredit portfeli 3 barobar oshgan.
- RWA o'sishi yuqori bo'lsa-da, qo'shimcha kapital emissiyasi (AT1) CARni 18-19% darajada ushlab qoldi.
- Bank IPO jarayonida ustav kapitalini kengaytirishga erishdi.

2) Asaka bank:

- 2021-2023-yillar transformatsiya jarayonlarida eng faol banklardan biri bo'lgan.
- Korporativ kreditlar ulushi yuqori bo'lgani sababli RWA bosimi katta.
- Tier 2 kapitalni oshirish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamladi.



3) Aloqabank:

- Raqamli transformatsiya 2022-2025-yillarda kredit risklarini kamaytirishga yordam berdi.
- AT1 ulushi ortdi, CAR 20% atrofida barqarorlashdi.

4) Turonbank:

- Likvidlik ko'rsatkichlari yuqori, diversifikatsiya kuchli.
- Kapital sifati – CET1 82% atrofida, bu ehtiyot buferlarining yetarli ekanini ko'rsatadi.

Kapitallashuv darajasining oshishi bank likvidlik ko'rsatkichlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Basel III standartlari bo'yicha asosiy likvidlik indikatorlari:

- LCR – Likvidlik qamrov koeffitsienti
- NSFR – Uzoq muddatli likvidlik koeffitsienti

2025-yilda O'zbekiston banklarida:

- LCR o'rtacha 135-145%
- NSFR o'rtacha 120-125%

Bu banklar aktivlari likvidligini ta'minlashda kapitalning yetarli qo'llovchi rol o'ynaganini ko'rsatadi.

2025-yil 28-oktabrda tasdiqlangan 3697-sonli yangi Nizomdagi kapital yetarliligi normativlariga ko'ra:

- Minimal CET1 – 7%
- Minimal AT1 + Tier 1 – 8,5%
- Minimal umumiy kapital – 12,5%
- Kapital buferi – 2,5%

Bank kapitallashuvi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini, risklarni yengib o'tish qobiliyatini va iqtisodiy shoklarga qarshi "bufer" sifatidagi rolini belgilovchi fundamental iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Bank kapitali nafaqat moliyaviy resurs, balki strategik xavfsizlik instrumenti sifatida ham qaraladi.

2020-2025-yillardagi natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston banklarida kapitallashuv o'sishi bir nechta omillar bilan izohlanadi:

1) Davlat banklari transformatsiyasi

Davlat ulushining qisqarishi, korporativ boshqaruvning kuchayishi, IPO/SPO jarayonlarining boshlanishi kapital o'sishining asosiy drayverlaridan bo'ldi. Davlat tomonidan qo'shimcha kapital qo'yilmalari CET1ni sezilarli oshirdi.

2) Raqamli kreditlash va risk baholash tizimlari

Raqamli transformatsiya (scoring-modellar, Data Lake, avtomatlashtirilgan risk tizimlari) kredit portfelidagi risklarning kamayishiga, shu orqali kapitalga bo'lgan bosimning pasayishiga xizmat qildi.

3) Xalqaro bozorlar bilan integratsiya

Moody's, Fitch va S&P reyting agentliklarining barqaror prognozlari banklarning xalqaro kapital bozorlaridan mablag' jalb qilishini osonlashtirdi. Bu AT1 va Tier 2 hajmining oshishiga olib keldi.

4) Kapital bozorining rivojlanishi

2022-2025-yillarda Uzbekistan Fund Market faollashdi, bu banklarga aksiyalar va obligatsiyalar chiqarish orqali kapitalni kengaytirish imkonini berdi.

Kapitallashuv sifati bo'yicha muammolar:

1. CET1ga haddan tashqari tayanish

O'zbekiston banklarida CET1 ulushi yuqori (80% atrofida). Bu barqarorlikni ko'rsatsa-da, kapital diversifikatsiyasi past. AT1 va Tier 2 ulushining ortishi kapitalning elastikligini oshiradi.

2. Subordinatsiyalashgan qarzlar bozorining past rivojlanishi

Tier 2 kapitalni oshirish uchun mahalliy obligatsiyalar bozori yetarlicha rivojlanmagan.

3. Valyuta riskining kapitalga ta'siri

2020-2025-yillarda valyuta kreditlari ulushi 40-45% bo'lgan. Bu kapitalning qo'shimcha buferlar orqali mustahkamlash zaruratini kuchaytiradi.

4. Kredit portfeli konsentratsiyasi

Ayrim banklarda:

- yirik korporativ kreditlar ulushi yuqori;
- oltin qazib olish, qurilish va davlat loyihalariga yo'naltirilgan kreditlar katta risk tug'diradi.

Bu RWAning oshishiga va kapital yetarliligiga bosim kuchayishiga sabab bo'ladi.

3697-sonli Nizomning kapitallashuvga ta'siri

2025-yilda joriy etilgan yangi Nizom O'zbekiston bank tizimida kapital boshqaruvini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Nizomning asosiy jihatlari:

- Kapital buferlarining aniq belgilanishi
- RWA hisoblash metodologiyasining aniqlashtirilishi
- AT1 instrumentlarining kengaytirilgan talqini



- Ipoteka va korporativ kreditlar bo'yicha risk og'irliklarining yangilanishi

Kutilayotgan ijobiy ta'sirlar:

1. Kapital strukturasi diversifikatsiya ortadi.
2. RWA optimallashtiriladi.
3. Banklar kapital yetariligi bo'yicha stress-testlarni muntazam o'tkazadi.
4. Xalqaro kapital bozorlaridan resurs jalb qilish osonlashadi.

Ehtimoliy salbiy ta'sirlar:

- Kichik banklar uchun qo'shimcha kapital talablarini bajarish qiyinlashishi mumkin.
- Kreditlashda konservativlik ortishi iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi mumkin. Shunga qaramay, o'rta muddatda Nizom bank tizimi barqarorligini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida 2020-2025-yillardagi O'zbekiston tijorat banklarining kapitallashuv darajasi, kapital sifati, risk og'irlashtirilgan aktivlar tarkibi hamda barqarorlik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar chuqur o'rganildi. Empirik, qiyosiy va iqtisodiy-statistik tahlillar natijalari kapitallashuv bank barqarorligining asosiy determinantlaridan biri ekanini tasdiqladi.

Tadqiqotdan olingan asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

1. O'zbekiston banklarining kapitallashuv darajasi 2020-2025-yillarda sezilarli oshdi. Bu davr davomida banklarning umumiy kapitali deyarli 2 barobar o'sdi, CAR ko'rsatkichi 13,8% dan 19-20% gacha ko'tarildi, bu esa banklarning risklarni qoplash qobiliyati mustahkamlanganini bildiradi. Transformatsiya jarayonlari, IPO/SPO mexanizmlarining joriy qilinishi va qo'shimcha kapital emissiyasi ushbu o'sishning asosiy omillari bo'ldi.

2. Bank kapitalining sifati yaxshilandi va diversifikatsiya keskin oshdi. 2020-yilda CET1 kapitalining ulushi 89% bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 78-80% gacha pasayib, AT1 va Tier 2 kapitali ulushi 2-3 barobar oshdi. Bu kapital tuzilmasining barqarorligini kuchaytirgan muhim omildir. Xususan, subordinatsiyalashgan qarzarlar (Tier 2) va qo'shimcha asosiy kapital instrumentlarining (AT1) faol emissiya qilinishi kapitalning "elastikligi"ni oshirdi.

3. Risk og'irlashtirilgan aktivlar hajmi oshgan bo'lsa-da, kapital o'sish sur'ati uni qoplay oldi. RWAning keskin o'sishi kreditlash hajmining ortgani, ipoteka va korporativ kreditlar ulushi kengaygani bilan izohlanadi. Shunga qaramay, kapitalning tezroq o'sishi CARning pasayib ketishining oldini oldi. RWA va CAR o'rtasidagi salbiy korrelyatsiya (-0,65) risklarni boshqarishning markaziy rolini tasdiqlaydi.

4. Rentabellik va likvidlik ko'rsatkichlari kapitallashuv oshgani sari yaxshilandi. 2020-2025-yillarda ROE 9,5% dan 15-16% gacha, ROA 1,2% dan 2,1-2,3% gacha oshdi. Banklarning LCR (135-145%) va NSFR (120-125%) ko'rsatkichlari ham yuqori darajada shakllandi. Bu kapitalning yetariligi nafaqat barqarorlikni, balki operatsion samaradorlikni ham kuchaytirganini ko'rsatadi.

5. 3697-sonli kapital yetariligi Nizomi banklar kapitallashuviga strategik ta'sir ko'rsatmoqda. 2025-yil 28-oktabrdan kuchga kirgan yangi Nizom kapital buferlari, minimal CET1, Tier 1 va umumiy kapital ko'rsatkichlari bo'yicha ilg'or xalqaro talablarni joriy qildi. Bu normativlar kapital boshqaruvi madaniyatini sifat jihatdan yangi darajaga olib chiqib, O'zbekiston bank tizimini Basel III standartlariga to'liq moslashtirmoqda.

Quyida O'zbekiston banklari kapitallashuv darajasi va moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar tizimlashtirilgan. Takliflar prudensial talablar, raqamlashtirish, kapital bozorini rivojlantirish, risklarni boshqarish va transformatsiya jarayonlarining integratsiyasiga asoslanadi.

1. Kapital strukturasi diversifikatsiya qilish va AT1 instrumentlarini kengaytirish:

- Banklar qo'shimcha asosiy kapital (AT1) instrumentlari emissiyasini kengaytirishi lozim.
- AT1 va Tier 2 instrumentlari uchun milliy kapital bozorida maxsus tartib (listing shartlari, investorlar segmenti) ishlab chiqilishi zarur.
- Banklar mijozlar va investorlar orasida AT1 va T2 instrumentlari mexanizmlari bo'yicha moliyaviy savodxonlikni oshirishi kerak.

Bu orqali kapitalning elastikligi oshadi, CET1ga bo'lgan ortiqcha yuk kamayadi, kapital sifati mustahkamlanadi.

2. Kapital yetariligi bo'yicha muntazam stress-testlar tizimini joriy etish:

- Markaziy bank tomonidan har chorakda banklar kesimida stress-testlar o'tkazish amaliyoti joriy etilishi lozim.
- Stress-testlar valyuta riski, kredit riski, likvidlik riski va foiz stavkalari xavflarini qamrab olishi kerak.
- Har bir bank o'zining ichki ICAAP (Internal Capital Adequacy Assessment Process) tizimini ishlab chiqishi shart.

Bu orqali banklar kapital talabini oldindan baholay oladi va barqarorlik oshadi.



3. RWA (Risk Weighted Assets) optimallashtirish strategiyasini ishlab chiqish:

- Kredit portfeli diversifikatsiyasi: yuqori riskli kreditlar ulushini kamaytirish, garov bilan ta'minlangan kreditlarni kengaytirish.

- Sug'urtalangan kreditlar ulushini oshirish orqali risk og'irliklarini kamaytirish.
- Raqamli skoring-modellarni takomillashtirish orqali defolt xavfini kamaytirish.

Bu orqali RWA pasayadi, CAR ko'rsatkichi barqaror o'sadi.

4. Kapital bozorini rivojlantirish va banklarning IPO/SPO jarayonlarini faollashtirish:

- Bank aksiyalarini mahalliy va xalqaro fond bozorlarida joylashtirish mexanizmlari soddalashtirilishi zarur.
- Yuqori korporativ boshqaruv standartlariga o'tish IPO samaradorligini oshiradi.
- Banklar obligatsiya emissiyasini tizimli amalga oshirishi lozim.

Bu orqali kapital jalb qilish imkoniyatlari kengayadi, banklar kapitalga bog'liq bo'lmagan manbalardan foydalanishni o'rganadi.

5. Subordinatsiyalashgan qarzlar bozorini shakllantirish:

- Milliy moliya bozorida Tier 2 instrumentlari uchun qulay sharoitlar yaratilishi zarur.
 - Institutsional investorlar (pensiya jamg'armalari, investitsiya fondlari) ushbu bozorda faol bo'lishi kerak.
- Bu orqali Tier 2 kapitalning ulushi oshadi, kapital strukturasi uzoq muddatli barqarorlik mustahkamlanadi.

6. Bank kapitali boshqaruvini raqamlashtirish

• "Audit Data Lake", "Risk Data Lake" va buyurtma asosidagi raqamli kapital monitoring platformalarini joriy etish maqsadga muvofiq.

- Kredit portfeli, likvidlik va kapital talabini real vaqt rejimida sun'iy intellekt asosida monitoring qilish zarur.
- Bu orqali kapitalning aniqligi va prognozligi oshadi.

7. Davlat loyihalari ulushini kamaytirish va bozor tamoyillariga o'tish

- Davlat tomonidan moliyalashtiriladigan yirik loyihalar ulushi qisqarishi lozim.
 - Kredit portfeli tarkibida bozor asosidagi kreditlar ulushi oshirilishi kerak.
 - Davlat loyihalari uchun kapitalga qo'shimcha yuklama yaratmaydigan mexanizmlar ishlab chiqilishi zarur.
- Bu orqali banklar risklarini mustaqil boshqaradi, kapital talabiga bosim kamayadi.

8. Basel III/IV talablari bilan to'liq uyg'unlashgan kapital boshqaruvi tizimini yaratish

• ICAAP va ILAAP (Internal Liquidity Adequacy Assessment Process) jarayonlarini banklar darajasida to'liq joriy etish.

- Kapital buferlari monitoringini kuchaytirish.
- Yirik banklar uchun qo'shimcha sistematik risk buferi belgilash.

Bu orqali xalqaro standartlarga mos barqaror bank tizimi shakllanadi.

Mazkur tadqiqotning umumiy natijalari shundan dalolat beradi: kapitallashuv darajasi yuqori va kapital sifati mustahkam bo'lgan banklar iqtisodiy o'sishning ishonchli poydevoridir. Barqaror kapital strukturasi ega banklar kreditlashni kengaytiradi, iqtisodiy shoklarga chidamli bo'ladi, investorlar ishonchini mustahkamlaydi va moliyaviy tizimning umumiy barqarorligini oshiradi.

Shu sababli kapitallashuvni oshirish bo'yicha taklif qilingan chora-tadbirlarning bosqichma-bosqich joriy etilishi O'zbekiston bank tizimining xalqaro standartlarga mos, raqobatbardosh va investorlarga jozibador tizim sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-son Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-4581969>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-4811025>
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 28-oktabrda ro'yxatdan o'tkazilgan "Banklar kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 3697-sonli Nizom.
4. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: A Global Regulatory Framework for More Resilient Banks and Banking Systems.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulletenlari (2020-2025-yillar).
6. IMF. Financial Stability Report, 2023–2025.
7. World Bank. Uzbekistan Financial Sector Review, 2024.
8. Moody's. Banking System Outlook: Uzbekistan, 2024.
9. Ipoteka-bank yillik hisobotlari (2020-2024-yillar).
10. Asaka bank yillik hisobotlari (2020-2024-yillar).
11. Aloqabank yillik hisobotlari (2020-2024-yillar).
12. Turonbank yillik hisobotlari (2020-2024-yillar).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>